

This is not registered version of TotalDocConverter
Maqolani 12 taqsimiga bo'lib hamzalarning hayrat va taajjublarig'a sabab bo'lsa kerak. Uzimizdag'i shul maqolani buyuk bir hayrat va taajjub ichinda yozib turibmiz. Masala shu:

"Sho'royi islom" jamiyatining[1] saylov to'g'risinda "uy egalari"[2] otli bir rus partiyasi bilan ittifoq qilg'anini barchamiz bilib oldik endi, Mashhur so'zlarg'a qarag'anda, shul ittifoq ikki musulmon, bir rus tartibi o'zaro bog'langan. Muning ma'nosi shuki, "Sho'royi islom" o'z ro'yxatig'a elli(q) musulmon va yigirma besh rusni, ikki musulmon bir rus qilib yozadir. Saylov kuni "Sho'royi islom" tarafdorlari bo'lg'an musulmonlar bilan "uy egalari" tarafдорлари bo'lg'an ruslar shul sho'roning ro'yxatig'a tavush berurlar va natijada masala 15 galos[3] olinsa, 5 tasini ruslarga berib, 10 tasini musulmonlar olurlar.

Tunov kuni mutafakkir bir do'stim bilan shul to'g'rilarda gapurib o'tirgan edim. Do'stim haqli bir suratda "Sho'royi islom"ning shul ittifoqini tanqid qildi, dedikim:

Samarqand sayloviq'a qushilaturg'anlar; musulmondan (xotunlar hisob emas) o'nolti ming, juhud ikki ming besh yuz, rus o'n bir ming besh yuz, hammasi o'ttiz ming kishi bo'lur. Shul o'ttiz ming kishini yetmish besh galosiga taqsim qilsak, har to'rt yuz kishiga bir galosi tushar. Emdi shunisi ham ma'lumdirki, saylovg'a qo'shilatulg'an o'n bir ming besh yuz rusning hammasi "uy egalari" partiyasiga dohil emaslar. Chunki ruslar orasinda "uy egalari" partiyasidan boshqa to'rt-besh partiya bordur. "Uy egalar" partiyasi g'ayrat qilsa, o'n bir ming besh yuz rusdan ikki mingini o'z tarafiga ola bilur.

Faraz qilaylikki: sho'ro jamiyat shul saylovda o'z tarafiq'a, o'z ro'yxati uchun ikki ming musulmon tovushi ola bilsun. "Uy egalar" partiyasining o'ttiz besh galosi tushar. Endi ittifoq yuzindan sho'ro jamiyatining o'zi shul o'ttiz besh galosdan o'n ikki ming musulmon tovushi olur 24 galosni; "uy egalar" partiyasiga ikki ming rus tovushi uchun berur o'n bir galosni!

Holbuki, ayri-ayri spiska bo'lg'anda "Sho'royi islom" o'n ikki ming musulmon tovushi uchun 30 galosni va "uy egalar" partiyasi ikki ming rus tovushi uchun besh galosni olur edi. Mana shul hisob yuzindan Sho'ro jamiyatining shul qilg'an ittifoqi musulmon haqiq'a zararlidir, chunki olti musulmon galosining yeri ruslarga o'tgan bo'lur.

Do'stimmung bu hisoblarini eshitgach, hayratda qoldim. "Ajabo, Sho'ro jamiyat nechun shuni tushunmaydi?" dedim va chiqib keldim. Sho'ro shu masalani tushunmag'an bo'lsa, millatning o'zi tushunsin va ortuq qaysi no'mir ro'yxatig'a tovush bermak kerak edigini tayin etsun.

("Hurriyat", 1917 yil, 5 sentyabr, 36-son)

Qayta nashri: "Yoshlik", 1991, 10-son, 45-bet (N. Avazov nashrga tayyorlagan). Saylovlarda ishtirok etayotgan har bir firqa qatori "Sho'royi islomiya" tashkiloti va uning rus "uy egalar" firqasi bilan hamkorligi tanqid etilgan.

Б†‘ Sho'royi islomiya - 1917 yil 1 aprelda mazkur tashkilotning 1 qurultoyida ta'sis etilgan jamiyat. Sobiq o'ng jadidlar, asosan, shu jamiyat quruvchilarini edilar. Uniig dasturi qurultoyda Munavvar Qori nutqida e'lon etilgan.

Б†‘ Uy egalar - Turkistonda mavjud rus partiyalaridan biri.

Б†‘ galos - ovoz.